

**Qarshi shahar Arabxona mahallasi aholisi leksikasi**

Guliston davlat pedagogika instituti

ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

talabasi **Safarova Hamrooy**

Annotatsiya; O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar Arabxona mahallasining kelib chiqish tarixi, mahalla nomining vujudga kelishi, va mazkur mahalla aholisining hozirgi kundagi leksikasining qay yo‘sinda shakllangani haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Arabxona, leksika, uy-ro‘zg‘or buyumlari, uy jihozlari, oshxona anjomlari, kiyim turi.

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Arabxona mahallasi tashkil topishi va uning mahalla bo‘lib shakllanishi milodiy XV asrga borib taqaladi. Hozirgi kundagi yashab turgan aholi „Arabxona“ mahallasidagi xalq avlodi VII asrda Saudiya Arabistonidan Iroq, Eron shu bilan birga Turkmaniston orqali Buxoroi Sharifning Qavola Mahmud qishlog‘iga kelib yashagan. Shu arablardan uch aka-uka cho‘ponlar: Eshboy, Xolboy va Toshboylar chorva mollarini boqish uchun o‘targa haydab kelib hozirgi Qo‘ng‘ir tog‘i atrofida chorva mollarini boqib kun kechirganlar. Saidboy degan odam quduq qazib, shundan chorva mollarini sug‘organlar. Asta-sekin ariq, kanallar qazilishi natijasida sug‘oriladigan yerlar ko‘paygan. Shundan so‘ng sekinlik bilan aholi unumdor yerlarda uy-joy qura boshlaganlar. Bu qurilgan uy-joylar hozirgi Arabxona mahallasiga to‘g‘ri kelgan yana bir asosiy ma‘lumot aholi qurgan „uy“lar fors tilida „xona“ deb atalgan. Arablar kelib shu yerda istiqomat qilganliklaridan „Arabxona“ degan nom paydo bo‘lgan va shu tarzda „Arabxona“ mahallasi tashkil topgan. „Arabxona“ termini sifatida tarixga XV asrdan keyin kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, tub o‘zgarishlar jarayoni bo‘ldi. Istiqlol tufayli har bir viloyat, shahar, tuman, mahalla va qishloqlarga alohida katta e‘tibor qaratilgan o‘zgartishlar kiritilgan va hozirgi kunga qadar bu yangilash, rivojlanish jarayoni davom etmoqda. Istiqlol yillarida bo‘lgan o‘zgarishlar „Arabxona“ mahallasini ham chetlab o‘tmadi. Mustaqillik yillariga qadar „Arabxona“ mahallasi Beshkent hamda Koson tumanlari tarkibiga kirgan. 1992-yildan Qarshi shahriga tegishli hududga aylangan. Mazkur mahallada joylashgan maktablar 1975-1976- yillarga qadar tojik tilida faoliyat ko‘rsatgan. Keyingi yillarda esa o‘zbek tiliga asosan darslar olib borilgan. Tojik tili ta‘siri sabab hozirgi kunda aholining katta qismi tojik tilida so‘zlashishadi. 2023-yil yanvar oyidagi statistikaga ko‘ra „Arabxona“ mahallasida 1235ta xo‘jalik, 1556 ta oilalar soni, 7210 ta aholi soni, shulardan, 3412nafarini erkaklar 3798nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi.



Arabxona mahallasining katta qismi tojik tilida so`zlashishganli sababli aholi leksikasida ma`lum bir farqlar mavjud. Bularga asosan, uy-ro`zg`or buyumlari va kundalik turmushdagi o`zaro so`zlashishlar leksikasida o`z aksini ko`rsatadi. Adabiy til bilan mazkur mahallada leksikasida qo`llanadigan uy-ro`zg`or buyumlarining nomlarini qiyoslab chiqamiz.

1.Oshxonada ishlatiladigan buyum nomlari;

1)qumg`on- (tojikcha so`z bo`lib, choynak degan ma`noni anglatadi. Qadimda o`choqda choy qaynatish uchun qo`llanilgan uy-ro`zg`or buyumi sifatida ishlatilgan.) choynak;
2)chokardon- cho`mich, 3)lali-(ushbu uy-ro`zg`or buyumi boshqa shevalarda turlicha qo`llaniladi. Masalan, lagan, likop singari) tovoq; 4)satil(boshqa shevalarda esa paqir)-chelak,5) zelvar – nonsavat; 6)po`stak(xamir qorish, yoyish uchun ishlatiladigan buyum) – surpa, 7)chavli – cho`lpi, 8)sham- shag`am;

2.Uy jihozlari nomlari;

1)gavora(tojik tiliga mansub so`z)- beshik; 2)po`stakcha- kichik hajmdagi gilamcha;
3)nontaxta- xontaxta;

3.Uy ichiga solinadigan buyum nomlari;

1)bolish(uzunchoq va dumaloq shaklga ega yostiq turi) – yostiq,
2)takya (bu ham yostiq turi bo`lib shevada shu tarzda aytiladi.)yostiq; 3)qolin – gilam;
4)so`zani-(aslida forscha so`z bo`lib, igna bilan tikilgan degan ma`noni anglatadi. Sodda tushuntiradigan bo`lsak, kashta matosidir.)so`zana;

4)Boshqa uy-ro`zg`or buyumlari nomi va kiyim turi nomi;

1)jo`rob – supurgi ;
2)xaskashak-(xashak, xascho`plarni to`plash yoki urug`i sochib ekiladigan o`simliklar ekishga mo`ljallangan, yer tuprog`ini tekislash uchun ishlatiladi.)tirna;
3)xokandoz- kichik kurakcha; 4)bo`xcha- tugun; kalapo`sh-(tojikcha so`z bo`lib, bosh uchun kiyiladigan kiyim turi ma`nosida. Boshqa shevalarda qalpoq tarzida qo`llaniladi.) do`ppi; 5)jelak-paranji; 6)belqars yoki qars – belbog`; 7) shona-taroq (mazkur termin aholi leksikasida sinonimlik qiladi. Bunda birinchi ma'no taroq so'zini ifodalash, ikkinchi sinonim sifatida esa inson tana a'zosi kurak qismi nazarda tutiladi).

5.Kundalik hayotda qo`llaniladigan ba`zi so`zlar va taom turi;

1)qayish- xamirdan tayyorlanadigan ovqat turi, 2)uchpishar- g`ilvindi;
3)barak- chuchvara; 4)tarasha- o`tin; 5)pirmacho`p-(paxta poyasi) g`o`zapoya;
6)jo`gori- makkajo`xori; 7) zakash- zovur.

Xulosa qilib aytganda, Arabxona mahallasi leksilasiga oid so`zlarining ko`pchilida fors-tojik tilining ta`siri katta ekanligiga guvoh bo`lamiz. Bunga sabab, yuqorida aytib o`tganimizdek, ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholining katta qismi tojik tilida



soʻzlashishlaridir. Taʼkidlab oʻtish joizki, mazkur mahalla hozirgi kunda muloqot jarayonini, muloqot almashinuvini tojik tilida olib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. „Oʻzbek tilining imlo lugʻati”. Toshkent-2013
2. R.Sayfullayeva „Hozirgi oʻzbek adabiy tili ‘. Toshkent-2021
3. A. Madvaliyev „Oʻzbek tilining izohli lugʻati ‘. , Oʻzbekiston nashriyoti“ -2021

